

Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 7 919,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 119,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Surxondaryo viloyati *	7 919,5	119,7
Termiz sh.	1 649,4	130,6
Oltinsoy tumani	248,8	135,8
Angor tumani	350,7	119,1
Bandixon tumani	184,5	140,7
Boysun tumani	293,9	121,2
Muzrabot tumani	274,1	154,4
Denov tumani	571,6	118,1
Jarqo'rg'on tumani	396,9	124,4
Qumqo'rg'on tumani	250,0	110,4
Qiziriq tumani	310,7	159,6
Sariosiyo tumani	600,4	112,4
Termiz tumani	345,7	118,5
Uzun tumani	152,1	139,1
Sherobod tumani	293,3	119,4
Sho'rchi tumani	206,1	125,1

**) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,1 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 121,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,0 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,9 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 155,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	437,4	564,3	52,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	571,1	95,1	221,0
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 948,6	1182,0	255,2
<i>o'sish sur'ati, %</i>	123,8	120,3	146,1
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 479,2	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	103,9	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 045,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 152,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,8 % ga ko'payib, 13,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,4 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 123,9 % ni tashkil etgan holda 4 385,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 31,3 % ni yoki 2 479,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Surxondaryo viloyati *	1 054,5	4 385,8	2 479,2	152,0	123,9	103,9
Termiz sh.	162,5	1 439,1	47,8	285,5	123,4	121,2
Oltinsoy tumani	56,5	167,4	24,9	187,7	129,4	104,6
Angor tumani	21,6	241,2	87,9	138,5	123,5	105,2
Bandixon tumani	15,4	127,6	41,5	231,2	136,1	134,9
Boysun tumani	11,5	177,5	104,9	123,6	128,3	110,5
Muzrabot tumani	108,5	83,8	81,8	506,4	119,9	94,8
Denov tumani	19,2	377,4	175,0	126,1	126,1	103,3
Jarqo'rg'on tumani	74,8	202,5	119,6	168,1	119,4	113,9
Qumqo'rg'on tumani	9,0	143,7	97,3	30,5	120,2	126,1
Qiziriq tumani	94,2	182,3	34,2	1 705,6	115,4	110,1
Sariosiyo tumani	242,2	226,6	131,6	106,1	124,3	106,5
Termiz tumani	17,8	216,9	111,0	84,9	124,9	114,3
Uzun tumani	39,6	59,9	52,6	157,9	142,2	124,8
Sherobod tumani	27,5	154,3	111,5	122,4	131,2	105,7
Sho'rchi tumani	3,4	163,1	39,6	122,6	130,0	108,7

**) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda*

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 17.0 m), Bandixon tumani (2.3 m) va Muzrabot tumani (5,0 m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Uzun tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 142,2 %), Bandixon tumanida (136,1 %) va Termiz shahriga (123,4 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Surxondaryo viloyati investitsiya va
qurilish statistikasi bo'limi

Ijrochi:
SH. Gaipov
55 451-80-00 (7520)

